



HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

**Ahmedov Bekzod
Alisher o'g'li**

“Iqtisodiyot” yo'nalishi talabasi

**Abdukarimov Bobir
Gulmamatovich**

*Andijon Davlat Texnika Instituti, “Iqtisodiyot”
kafedrasida assistenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning tutgan o'рни va ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri o'rganilgan. Investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, hududlarning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar investitsiyalar hajmining ortishi hududlarda iqtisodiy faollikning kuchayishiga, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga hamda bandlik darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida hududlarda investitsiyalarni yanada faol jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar berildi.

Kalit so'zlar: investitsiya, hudud iqtisodiyoti, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, YaIM, infratuzilma, investitsion siyosat, investitsion samaradorlik.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Ayniqsa, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashda investitsiyalar muhim o'rin tutadi¹. Shu sababli investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda ko'plab davlatlarning iqtisodiy siyosatida alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ma'lum darajada kamaygan bo'lsa-da, investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib qolmoqda². Shu

¹ Vahobov A.V. *Investitsiyalarni moliyalashtirish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

² UNCTAD. *World Investment Report 2025*. – Geneva, 2025.

bois investorlar uchun qulay sharoit yaratish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari ko‘plab mamlakatlarda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ham investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida iqtisodiyotga yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va hududlarning investitsion salohiyatini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilangan³. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan bo‘lib, bunda xorijiy investitsiyalarning ulushi yuqori bo‘lgan⁴. Investitsiyalar hududlarda yangi korxonalarni tashkil etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan hudud iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiyalarning o‘rnini o‘rganish, investitsion muhitni yaxshilash va investitsion faollikni oshirish omillarini aniqlash mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi. Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning tutgan o‘rnini aniqlash, investitsiyalar hajmi bilan iqtisodiy o‘sinh ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish hamda hududlarda investitsion faollikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va hududlar rivojlanishidagi ahamiyatini o‘rganish;
- hudud iqtisodiyotiga ta’sir etuvchi investitsion omillarni tahlil qilish;
- investitsion jozibadorlik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash;
- investitsiyalar va hududiy iqtisodiy o‘sinh o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash;
- hududlarda investitsion faollikni oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Nazariy asoslar va adabiyotlar sharhi

Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantiradi. Shu sababli investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Klassik iqtisodiyot namoyandalari A. Smit va D. Rikardo kapital jamg‘arilishi ishlab chiqarishning kengayishiga xizmat qilishini ta’kidlaganlar^{5,6}. J. Keynes esa investitsiyalarni iqtisodiy faollik va bandlik darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida baholagan⁷. P. Samuelson va V. Nordhaus investitsiyalarni iqtisodiy o‘sinhni ta’minlovchi asosiy omillardan biri deb hisoblagan

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari, 2025-yil.

⁵ Smith A. *The Wealth of Nations*. 1776.

⁶ Ricardo D. *Principles of Political Economy and Taxation*. 1817.

⁷ Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. 1936.

bo'lsalar⁸, M. Porter investitsiyalar va innovatsiyalar hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan⁹.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov, N. Jumayev ilmiy ishlarida investitsion siyosat, investitsion muhit hamda investitsion jozibadorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan^{1,10}. Ularning fikricha, investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni yangilash va hududlar rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Jumladan, manbasiga ko'ra ichki va tashqi, yo'nalishiga ko'ra real va moliyaviy, muddatiga ko'ra esa qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar ajratiladi. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda ayniqsa real investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar investitsiyalar hududlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida investitsiyalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Shuningdek, investitsion faollik, investitsion muhit va hududiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda ilmiy kuzatish, tahlil va sintez usullaridan ham foydalanildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ular asosida tegishli xulosalar shakllantirildi.

Investitsiyalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash

Investitsiyalar hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish hamda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada hududlarda iqtisodiy faollik ortib, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi daromadlarining o'sishi uchun sharoit yuzaga keladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hududlarga investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish va infratuzilma yo'nalishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, investitsiyalar hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, investitsiyalar hajmining ortishi korxonalar faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsion faollikning oshishi hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirib, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar investitsiyalar va hududiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli investitsion muhitni yaxshilash,

⁸ Samuelson P., Nordhaus W. *Economics*. 2020.

⁹ Porter M. *Competitive Advantage of Nations*. 1990.

¹ Vahobov A.V. *Investitsiyalarni moliyalashtirish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

¹⁰ Jumayev N.X. *Investitsiya siyosati*. 2022.

investorlar uchun qulay sharoit yaratish hamda investitsion faollikni rag‘batlantirish hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududlarda investitsiyaviy rivojlanishning dolzarb muammolari va xorijiy tajriba

Rivojlangan davlatlar tajribasi investitsiyalar iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Masalan, Janubiy Koreyada sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga erishilgan. Singapurda investorlar uchun qulay biznes muhitining yaratilishi hamda ma‘muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. Xitoyda esa erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi xorijiy investitsiyalar hajmining ortishiga va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan².

Mamlakatimizda ham investitsion muhitni yaxshilash va hududlarga investitsiyalarni faol jalb qilish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, ayrim hududlarda investitsion faollik darajasi bir xil emas. Bundan tashqari, ayrim infratuzilma obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslar imkoniyatining cheklanganligi hamda investorlar uchun zarur axborotlarning yetarli emasligi investitsiyalarni jalb qilish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababli rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hududlarda investitsion faollikni oshirish hamda iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

Hududlarda investitsion faollikni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar

O‘rganilgan ma‘lumotlar va olib borilgan tahlillar asosida hududlarda investitsion faollikni yanada oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- investitsiyalarni jalb qilish jarayonida uchraydigan ma‘muriy va tashkiliy to‘siqlarni kamaytirish;
- transport, energetika hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini kengaytirish;
- investorlar uchun zarur ma‘lumotlarni tezkor taqdim etuvchi raqamli xizmatlarni rivojlantirish;
- innovatsion va istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga investitsiyalar jalb etishni rag‘batlantirish.

Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish hududlarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot davomida investitsiyalarning hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni o‘rganildi va mavjud ilmiy manbalar asosida tegishli xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

² UNCTAD. *World Investment Report 2025*. – Geneva, 2025.

- investitsiyalar hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi;
- investitsiyalar hisobiga korxonalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati kengayadi;
- hududlarning investitsion jozibadorligi infratuzilma holati, biznes yuritish sharoitlari va boshqaruv samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq;
- investitsiyalar hajmining ortishi iqtisodiy faollikning kuchayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va hududlar iqtisodiy salohiyatining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;
- Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribasi investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha samarali siyosat yuritish iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini namoyon etadi;
- O‘zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hududlarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish uchun qulay sharoit yaratmoqda;
- hududlarda investitsion faollikni yanada oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish va investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish va iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ularni samarali jalb etish hamda oqilona boshqarish aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vahobov A.V. *Investitsiyalarni moliyalashtirish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. UNCTAD. *World Investment Report 2025*. – Geneva, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari, 2025-yil.
5. Smith A. *The Wealth of Nations*. 1776.
6. Ricardo D. *Principles of Political Economy and Taxation*. 1817.
7. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London, 1936.
8. Samuelson P., Nordhaus W. *Economics*. 2020.
9. Porter M. *Competitive Advantage of Nations*. 1990.
10. Jumayev N.X. *Investitsiya siyosati*. Toshkent, 2022.